TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAR AGRAR UNIVERSITETI

ZUXRIDDINOV MUXRIDDIN RAXMON O‘G‘LI

TIPIK BO‘Z TUPROQLAR SHAROITIDA RIJIK *(CAMELINA SATIVA* L.*)* YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI ELEMENTLARINI ISHLAB CHIQISH

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘T: 633.853.52:631.531.2

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам

Content of the abstract of (PhD) doctoral dissertation on agricultural sciences

Zuxriddinov Muxriddin Raxmon o‘g‘li
Tipik bo‘z tuproqlar sharoitida rijik (*Camelina sativa* L.) yetishtirish texnologiyasi elementlarini ishlab chiqish..... 3

Зухриддинов Мухриддин Рахмон угли
Разработка элементов технологии возделывания рыжика *(Camelina sativa* L.*)* в условиях типичных сероземов……..... 21

Zukhriddinov Mukhriddin Rakhmon ugli
Development of technological elements the cultivation of camelina *(camelina sativa l.)* in condition of typical sierozem soils..... 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 45

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAR AGRAR UNIVERSITETI

ZUXRIDDINOV MUXRIDDIN RAXMON O‘G‘LI

TIPIK BO‘Z TUPROQLAR SHAROITIDA RIJIK *(CAMELINA SATIVA* L.*)* YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI ELEMENTLARINI ISHLAB CHIQISH

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Qx1542 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz tilida (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tdau.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Atabayeva Xalima Nazarovna** qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xalilov Nasriddin** qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor
	Jumaboyev Zuxriddin Mo‘minovich qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 11-oktabr soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil 100164, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel: (+99871 260-48-00); faks: (+99871 260-38-60); e-mail: tuag_info@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti Ma’muriy binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№554929 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyat, Qibray numani Universitet ko‘chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 29-sentabrda tarqatildi.

(2025-yil 29-sentabrdagi №18-raqamli reyestr bayonnomasi)

U.Norqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor.

A.A.Qurbonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent.

M.S.Raxmankulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. So‘ngi yillarda dunyo bo‘yicha moyli ekinlar yetishtirish hajmi (659,4 mln. t)[1] muttasil oshib bormoqda, lekin o‘simlik moyiga oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlari ehtiyojining yuqori bo‘lib qolayotganligi, shuningdek ulardan turli maqsadlarda foydalanish zaruriyati oshib borayotganligi sababli yangi, ko‘p maqsadli moyli ekinlarni yetishtirishga qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Ushbu ekinlar ichida rijik ekini o‘zining serqirra imkoniyatlari yuqoriligi bilan ajralib turadi va bugungi kunda AQSHda 10929 ga, Kanadada 20235 ga, Rossiyada 75900 ga maydonda, shuningdek Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlarida yetishtirilmoqda[2], dunyo bo‘yicha gektaridan o‘rtacha 1,4 t hosil olingan bo‘lsa, AQSHda 2,3, Kanadada 3,0, Fransiyada 2,8, Avstriyada 3,6, Xitoyda 2,6 tonnani tashkil etmoqda[3]. Mazkur mamlakatlarda rijik yetishtirishda maqbul ekish muddati, usuli va me’yorlarining to‘g‘ri qo‘llanilishi natijasida yuqori va sifatli urug‘ hosili olishga erishilmoqda. Shu sababli, rijik o‘simligi uchun turli tuproq-iqlim sharoitlarida maqbul ekish muddati va me’yorlarini aniqlash hamda yetishtirishning muhim agrotexnologik elementlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoning katta hajmda moyli ekinlar yetishtiruvchi ko‘pgina mamlakatlari, shuningdek moyli ekinlar bilan shug‘ullanuvchi ilmiy tadqiqot markazlarida ham rijik ekiniga qiziqish katta bo‘lib, o‘simlikning biologik va morfofiziologik xususiyatlarini tadqiq qilish, yangi navlarini yaratish, asosiy, oraliq va siderat ekin sifatida yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqishga oid tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, rijikning bir qator afzalliklari, jumladan kuzda qoplovchi ekin sifatida ekilganda tuproqni eroziyadan himoya qilishi, yer osti suvlarining azot va fosfor bilan ifloslanishini sezilarli darajada kamaytirishi, tuproqdan ko‘pchilik o‘simliklar o‘zlashtira olmaydigan mikroelementlarni o‘zlashtira olishi va shu sababli unumdorligi past bo‘lgan tuproqlarda ham yetishtirish mumkinligi, shuningdek boshqa moyli ekinlardan farqli o‘laroq o‘tmishdosh tanlamasligi va bir dalada bir necha yil yetishtirish imkoniyati mavjudligi sababli ushbu ekinning maqbul agrotexnologiya elementlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, shu jumladan aholining o‘simlik moyiga ehtiyojini to‘la qondirishga erishish uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-noyabrdagi 623-sonli qaroriga muvofiq “Xorijiy davlatlar seleksiyasiga mansub noan’anaviy ekin turlarini respublikamiz hududlarining tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirish”[4] vazifasi belgilangan. Shu boisdan, mamlakatimizga moyli ekinlar urug‘ini xorijdan import qilishni qisqartirish, uning o‘rnini to‘ldiradigan va standart talablarga javob bera oladigan moyli ekinlarni, shu jumladan noan’anaviy moyli ekinlarni yetishtirish,

[1] https://obamawhitehouse.archives.gov/sites/default/files/omb/assets/oira_2060/2060_08012013-9.pdf
[2] https://en.m.wikipedia.org/wiki/Camelina_sativa?
[3] https://www.mdpi.com/2073-4395/11/2/332?
4 https://lex.uz/uz/docs/-6676831

ularning yangi navlarini yaratish, yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqishga doir tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-yanvardagi PQ-3484-son “Yog‘-moy tarmog‘ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Rijik o‘simligidan yuqori va sifatli hosil yetishtirish bo‘yicha xorijda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan, jumladan, AQSHda E.Obeng, K.A.Obour, N.O.Nelson, K.A.McVay, P.F.Lamp, S.D.Urbaniak, C.D.Caldwell, V.D.Zheljazkov, R.Lada, L.Luanlar, Rossiyada A.A.Smirnova, T.Y.Paraxova, V.V.Kireychev, D.V.Vinogradov, Y.L.Turinalar hamda Qozog‘istonda S.A.Tulkubayeva tomonidan turli tuproq-iqlim sharoitlarida ekish muddati va me’yorlarining rijik ekini o‘sishi, rivojlanishi, fotosintez mahsuldorligi, biometrik ko‘rsatkichlari, hosildorligi va urug‘ sifatiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan, shuningdek Eronda B.Bakhshi, R.A.Hossein, R.F.Hamidlar rijikning abiotik stresslarga chidamliligi va bu omillarning o‘simlikka ta’sirini, Hindistonda A.Agarval, O.Prakash, M.Bala, N.Sharma, B.J.Krohn, M.Fripplar o‘simlikni bioyoqilg‘i uchun yetishtirish imkoniyati va hosildorlik bilan aloqadorligini o‘rganishgan. Mamlakatimizda D.X.Allayeva Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi muddatda rijik o‘simligining maqbul ekish muddati va me’yorlarini aniqlashga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Ammo, Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida rijik yetishtirishda navlar bo‘yicha maqbul ekish muddati va me’yorlarini aniqlashga doir tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti O‘simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrasi “Dala va yem-xashak ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining (2021-2025-yy) 3.2-bo‘limi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Toshkent viloyatining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari sharoitida rijik navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda maqbul ekish muddati hamda me’yorlarini aniqlash va ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

rijik navlari urug‘ining dala unuvchanligi va amal davri oxirida o‘simlik tupsoning saqlanish darajasiga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’sirini aniqlash;

rijik navlarining o‘sishi, rivojlanish davrlari davomiyligi va amal davriga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’sirini aniqlash;

turli ekish muddati va me’yorlarida ekilgan rijik navlarining fotosintetik faoliyatini o‘rganish;

rijik navlarining biometrik ko‘rsatkichlari, urug‘ hosildorligi va moydorligiga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’sirini aniqlash;

Toshkent viloyatining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari sharoitida rijik yetishtirishning iqtisodiy samaradorligiga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’sirini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyatining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari, rijikning Kristall, Karat va Penzyak navlari, ekish muddatlari va ekish me’yorlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, Toshkent viloyatining qadimdan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida rijik navlarining o‘sishi, rivojlanishi, fotosintetik faoliyati, hosildorligi va urug‘ moydorligini aniqlash hamda rijik yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari: Dala tajribalarini o‘tkazish, fenologik kuzatishlar va biometrik o‘lchovlar “Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур”, “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” va “Методика полевого опыта” uslubiy qo‘llanmalari asosida, o‘simlik barg yuzasi, fotosintez sof mahsuldorligi va fotosintetik potensialini aniqlash Nichiporovich uslubida, urug‘dagi moy miqdorini aniqlash Sokslet (SOC-406) apparatida ekstraksiya usulida, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash V.N.Polojiy uslubida, tadqiqot natijalarining matematik-statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexov dispersion tahlil uslubi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

ilk bor Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida rijikning Kristall, Karat va Penzyak navlarini kuzda 8 mln.dona/ga me’yorda, Kristall navini bahorda 6 mln dona/ga me’yorda ekish maqbul ekanligi aniqlangan hamda mazkur ekish muddati va me’yorlarida o‘simlikning faol o‘sishi va rivojlanishi, yozgi ekish muddatida esa havo haroratining yuqori va nisbiy namligi past bo‘lishining Kristall navi o‘sish-rivojlanishiga salbiy ta’siri ilmiy asoslangan;

rijikning Kristall, Karat va Penzyak navlari kuzda 8 mln. dona/ga me’yorda ekilganda ekinzordagi fotosintetik faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, barcha navlar bo‘yicha maqbul (57,2; 60,2 va 54,1 ming m^2/ga) barg yuzasi shakllangani holda, fotosintez jarayoni jadal kechib, sof fotosintez mahsuldorligi yuqori va kam ekish me’yorlariga nisbatan sutkasiga 0,08-1,09; 0,05-0,91 va 0,20-1,31 g/m^2 ga ortishi natijasida bir gektar maydonda eng yuqori (164,7; 198,1 va 221,1 s/ga) quruq massa to‘planib, qolgan ekish me’yorlarida bu ko‘rsatkich mos ravishda 9,4-27,1; 10,3-22,9 va 3,4-29,8 % gacha kamayganligi hamda navlar orasida Penzyak navi ustun ekanligi, bahorgi muddatda esa Kristall navi 6 mln. dona/ga me’yorda ekilgan variantda ko‘rsatkichlar yuqori bo‘lishi aniqlangan;

rijik navlari kuzda turli ekish me’yorlarida ekilganda, ekish me’yorlari oshib borishi bilan navlar bo‘yicha bir tup o‘simlikdagi qo‘zoqcha soni 95,5-60,7-65,7 donagacha, qo‘zoqcha vazni 1,28-1,23-1,77 g.gacha, urug‘ vazni 0,69-0,63-1,06 g.gacha, 1000 dona urug‘ vazni 0,06-0,06-0,09 g.gacha hamda urug‘ moydorligi 2,0-1,05-3,0 % gacha kamayib borganligiga qaramay, 8 mln. dona/ga me’yorda ekilgan

variantda maqbul tupsoni va ularda o‘rtacha hosil elementlari shakllanishi evaziga urug‘ hosildorligining 1,9-4,5-4,8 s/ga.gacha, moy chiqishining 79,1-158,5-150,8 kg/ga.gacha yuqori bo‘lganligi, bahorgi muddatda yuqori natijalar Kristall navi 6 mln. dona/ga me’yorda ekilganda olinganligi ilmiy asoslangan;

barcha ekish muddatlarida ekish me’yorlari oshib borishi bilan rijik navlari hosildorligi va o‘simlik poya balandligi o‘rtasida (r=0,986, R^2=0,9613), barg yuzasi o‘rtasida (r=0,731 R^2=0,5348), quruq massasi o‘rtasida (r=0,921, R^2=0,8485) egri chiziqli kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligi va qaytish (sinish) nuqtasi 10 mln. dona/ga ekish me’yorida yuzaga kelishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quydagilardan iborat:

tipik bo‘z tuproqlar sharoitida rijik ekinidan yuqori va sifat hosil yetishtirish uchun maqbul nav, ekish muddatlari va me’yorlari aniqlab berilgan hamda ishlab chiqarishga joriy etish uchun parvarishlash agrotexnikasi ishlab chiqilgan;

rijikning Kristall, Karat va Penzyak navlari kuzda 8 mln. dona/ga (9,0 kg/ga) me’yorda ekilganda eng yuqori (22,0; 24,7 va 25,9 s/ga) hosil olingan va buning natijasida 1 ga maydon hisobiga olingan moy miqdori mos ravishda 954,0; 1031,1 va 1090,4 kg.ni tashkil etgan, bahorgi muddatda yuqori ko‘rsatkichlar (hosildorlik - 22,3 s/ga, moy chiqishi - 953,6 kg/ga) Kristall navi 6 mln. dona/ga (7,0 kg/ga) me’yorda ekilgan variantda kuzatilgan;

rijikning Kristall navi yozda turli ekish me’yorlarida ekilganda olingan eng yuqori hosildorlik kuzgi va bahorgi muddatlarga nisbatan 2 baravar kam (9,1 s/ga) bo‘lsada, lekin 1 ga maydondan 402 kg.gacha moy olish mumkinligi hisobiga ushbu muddatda ham 6 mln.dona/ga (7 kg/ga) me’yorda ekib, yetishtirish imkoniyati mavjudligi aniqlangan;

rijik navlari kuzda 8 mln. dona/ga (9 kg/ga) me’yorda ekib yetishtirilganda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilgan, Kristall navida 9374,0 ming so‘m, Karat navida 10967,0 ming so‘m va Penzyak navidan 11807,0 ming so‘m sof daromad olinib, rentabellik darajasi Kristall navida 167,2%, Karat navida 188,0% va Penzyak navida 202,4% ni tashkil qilgan, bahorgi muddatda esa Kristall navi 6 mln. dona/ga (7 kg/ga) me’yorda ekilganda eng yuqori rentabellikka (158,4%) erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarda laboratoriya va dala tajribalari umumqabul qilingan uslublardan foydalanilgan holda o‘tkazilganligi, olingan ma’lumotlarga matematik-statistik ishlov berilganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tajribalar natijalarining mahalliy va chet el tadqiqotlari bilan taqqoslanganligi, aniqlangan qonuniyat va xulosalarning asoslanganligi, ilmiy va amaliy natijalar mutaxassislar tomonidan aprobatsiyadan o‘tkazilganligi, tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishda sinovdan o‘tganligi, tadqiqot natijalarini Respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi natijalarning ishonchliligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida rijik navlarini asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirishda o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi, fotosintetik faoliyati, hosil elementlari shakllanishi, hosildorligi, urug‘ moydorligi va rijik yetishtirirish iqtisodiy samardorligiga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’siri navlar bo‘yicha aniqlanganligi va ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida rijik navlarini maqbul ekish muddati va me’yorlarda ekib yetishtirish texnologiyasi amaliyotga joriy etilishi natijasida yuqori hosildorlik va iqtisodiy samaradorlikka erishilishi bilan birga, maydon birligi hisobiga ko‘p moy olinishi sababli yog‘-moy sanoati ehtiyojini to‘laroq qondirilishi, avtomobil, aviatsiya va turdosh sanoatlarning muhim mahalliy xom-ashyo bilan ta’minlanishi, agronomik jihatdan bir qator ijobiy xususiyatlarga ega ekanligi hisobiga yil davomida asosiy, takroriy va sug‘urta ekini sifatida yetishtirish imkoniyati mavjudligi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Tipik bo‘z tuproqlar sharoitida rijik yetishtirish texnologiyasi elementlarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida rijik navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda maqbul ekish muddatlari va me’yorlarini belgilash borasida “Rijik yetishtirish texnologiyasi bo‘yicha tavsiyalar” nomli tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan *(Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 30-maydagi 05/04-04-280-son ma’lumotnomasi)*. Natijada, mazkur tavsiyanoma viloyat qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi xodimlari, fermerlar va mutaxassislar uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qilmoqda;

tipik bo‘z tuproqlar sharoitida rijik navlarini maqbul muddat va me’yorlarda ekib yetishtirish texnologiyasi Toshkent viloyatining Bekobod tumanidagi “Uchqun agro omad” fermer xo‘jaligining 1,5 gektar maydonida joriy etilgan *(Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 30-maydagi 05/04-04-280-son ma’lumotnomasi).* Natijada, kuzda gektariga 8 mln. dona (9,0 kg) me’yorda urug‘ ekilgan Kristall navidan 21,7 s/ga, Karat navidan 22,9 s/ga, Penzyak navidan 23,7 s/ga, bahorgi va yozgi muddatda gektariga 6 mln/dona (7,0 kg) urug‘ ekib, parvarishlangan Kristall navidan mos ravishda 20,2 va 8,9 s/ga hosil olishga erishilgan.

rijikning Kristall, Karat va Penzyak navlarini kuzda gektariga 8 mln. dona (9,0 kg), “Kristall” navini bahorgi va yozgi muddatda gektariga 6 mln. dona (7,0 kg) ekib yetishtirish texnologiyasi Bo‘ka tumanidagi “Xurram Rustam agro” fermer xo‘jaligining 2,5 gektar maydonida joriy etilgan *(Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 30-maydagi 05/04-04-280-son ma’lumotnomasi)*. Natijada, kuzda ekilgan rijik navlaridan mos ravishda 21,0; 22,3 va 23,4 s/ga hosil olingan holda 155,6; 172,4 va 185,6 % rentabellikkka erishilgan, bahorgi va yozgi muddatda ekilgan Kristall navining hosildorligi 20,4 va 8,6 s/ga.ni, rentabellik darajasi 147,2 va 44,4 % ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala tajribalari har yili Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rikdan o‘tkazilgan va ijobiy baholangan, tadqiqot natijalari yillik hisobotlarda bayon etilgan hamda universitetning Uslubiy va Ilmiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari bo‘yicha respublika miqyosidagi anjumanlarda 2 marta, xalqaro anjumanlarda 2 marta ma’ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi: Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shundan 2 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda, shuningdek 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyada ijobiy baholanganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Rijik navlari o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ekish muddat va me’yorlarining ta’sirini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida, mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Shuningdek, rijik ekinining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati bo‘yicha hamda yetishtirish texnologiyasi bo‘yicha ekish muddat va me’yorining o‘simlik o‘sishi va rivojlanishi, amal davrining davomiyligi, shoxlanishi, mingta urug‘ vazni, biometriyasi, rijik hosili va urug‘ sifatini oshirishini yaxshilashdagi ahamiyati batafsil bayon etilgan. Adabiyotlar tahlilining so‘ngida tadqiqotlarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda rijik o‘simligini yetishtirishda ekish muddati va me’yorlarini hisobga olgan holda maqbullarini to‘g‘ri belgilash orqali yuqori va sifatli hosil olish zarurati belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazish sharoiti va uslubi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, dala tajribalari o‘tkazilgan mintaqaning geografik o‘rni, tadqiqotlar o‘tkazilgan hududning tuproq-iqlim sharoitlari va tadqiqot o‘tkazish uslublari, shuningdek, rijik yetishtirishda qo‘llanilgan agrotexnik tadbirlar va tadqiqotlarni olib borishda foydalanilgan rijikning “Kristall”, “Karat” va “Penzyak” navlarining tavsifi keltirilgan.

Dala tajribalari Toshkent davlat agrar universiteti o‘quv-ilmiy tajriba xo‘jaligi dalasida o‘tkazilib, dala tajribalarini joylashtirish, hisoblashlar va kuzatuvlar “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (PSUYAITI), “Методика полевого опыта” (B.Dospexov), “Методика Государственного сортоиспитания селскохозяйственных култур”, “Методы агрохимических, агрофизических исследований почвы Средней Азии” uslublaridan foydalanilgan. Olingan natijalarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida va B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” uslubiy qo‘llanmasi asosida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning **“Rijik navlarining o‘sishi, rivojlanishi, fotosintetik faoliyati hamda hosil elementlari shakllanishining ekish muddatlari va me’yorlariga bog‘liqligi”** deb nomlangan uchinchi bobida, ekish muddatlari va me’yorlarining rijik navlarining tup soni va saqlanish darajasi, o‘sishi, rivojlanish davrlari davomiyligi,

fotosintetik faoliyati, shoxlanishi, mingta urug‘ vazniga ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Rijik navlariga ekish muddatlari va me’yorlarining amal davri boshidagi tup soni bo‘yicha olingan ma’lumotlarga ko‘ra, Kuzgi muddatda ekilgan Kristall navida o‘rtacha 304,6-778,8 dona/m^2 unib chiqqan holda dala sharoitida urug‘larning unib chiqish darajasi 76,0-77,9%ga, Karat navida 301,4-762,8 dona/m^2 yoki 75,4-76,3%ga, Penzyak navida esa 296,3-756,7 dona/m^2 yoki 74,1-75,7% teng bo‘lgani aniqlandi. Bahorgi muddatda ekilgan Kristall navida amal davri boshidagi o‘simlik tup soni o‘rtacha 310,7-794,8 dona/m^2 da bo‘lib, bu 77,7-79,5%ga, Kristall navi takroriy ekin sifatida ekilganda 295,4-763,7 dona/m^2 yoki 73,8-76,4% gacha bo‘lganligi aniqlandi. Turli muddatlarda ekilgan rijik navlari dala unuvchanligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich gektariga 10 mln.dona ekilganda kuzatilib, Kristall navida 77,9%, Karat navida 76,3%, Penzyak navida 75,7% ga, Kristall navi bahorda va yozda ekilganda mos ravishda 79,5 va 76,4% ga teng bo‘lgani aniqlandi (1-jadvalga qarang).

O‘rtacha 3 yildagi rijik navlarining amal davri oxiridagi tup soni va saqlanish darajasi aniqlanganda, kuzgi muddatda Kristall navining 4 mln.dona/ga ekilgan variantida saqlangan tup soni 256,5 dona/m^2 yoki 84,4% bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan bu ko‘rsatkich mos ravishda 377,4-494,9 va 572,3 dona/m^2 yoki 81,2-79,9 va 73,5% ga, Karat navida 4 mln.dona/ga ekilgan variantida saqlangan tup soni 262,1 dona/m^2 yoki 86,9% bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan bu ko‘rsatkich mos ravishda 383,5-501,7 va 592,8 dona/m^2 yoki 84,9-82,8 va 77,7%ga, Penzyak navida 4 mln.dona/ga ekilgan variantida saqlangan tup soni 259,4 dona/m^2 yoki 87,5% bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan bu ko‘rsatkich mos ravishda 385,9-507,1 va 597,3 dona/m^2 yoki 86,0-84,2 va 78,9%ga teng bo‘lganligi aniqlandi.

Ekish muddatlari hamda me’yorlarining o‘simlik o‘sishiga ta’siri aniqlanganda 2023-yilda Kristall navining 4 mln.dona/ga ekilgan variantida poya balandligi 95,4 sm.ni tashkil qildi. Ekish me’yorlari ta’sirida o‘simlik poya balandligi eng kam ekish me’yoriga nisbatan 4,8-8,4% ga, Karat navida eng kam ekish me’yorida o‘simlik poya balandligi 101,2 sm bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan poya balandligi 3,5-7,9 sm yoki 3,3-6,9% ga, Penzyak navida 4 mln.dona/ga ekilgan variantlarida poya balandligi 102,1 sm.ni tashkil qilib, eng kam ekish me’yoriga nisbatan 0,3-6,2 sm.ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi. Bu qonuniyat bahorgi va yozgi muddatda ekilgan Kristall navida ham takrorlanib eng kam ekish me’yoriga nisbatan bahorgi muddatda 1,1-7,6%, yozgi muddatda 3,3-9,6 % gacha oshganligi aniqlandi. Har uchala muddat va navda ham ekish me’yorlari orasidan eng yaxshi natija gektariga 8 mln.dona ekilganda kuzatildi va qolgan yillarda ham shu qonuniyat takrorlandi (1-jadvalga qarang).

Rijik navlarining rivojlanish davrlarining o‘tishi va amal davriga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’siri aniqlanib, 2023-yil kuzgi muddatda ekilgan rijikning Kristall navi eng kam ekish me’yorida amal davri 203 kun, ekish me’yori 2 mln.donaga oshirilganda 206 kun, gektariga 8 mln.dona ekilganda 210 kun va eng yuqori ekish me’yorida 213 kun, Karat navi eng kam ekish me’yorida amal davri 217 kun, ekish me’yori 2 mln.donaga oshirilganda 220 kun, gektariga 8 mln.dona ekilganda 223 kun va eng yuqori ekish me’yorida 227 kun, Penzyak navida ekish me’yori 4 mln.dona/ga bo‘lganda amal davri 220 kun, ekish me’yori 2 mln.donaga oshirilganda 223 kun, gektariga 8 mln.dona ekilganda 228 kun va eng yuqori ekish me’yorida 232 kun davom

etib, ekish me’yori oshib borishi bilan amal davri uzayganligi kuzatildi. Bahorgi muddatda ekilgan rijikning Kristall navining rivojlanishi 97-108 kunni, takroriy ekin sifatida ekilganda 71-79 tashkil qilib, ekish me’yori oshib borishi amal davri uzayganligi qayd etildi va qolgan yillarda ham shu qonuniyat takrorlandi.

1-jadval

Rijik navlari poya balandligiga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’siri, sm (2023 y.)

№	Variantlar		Rivojlanish davrlari		
	Navlar	Ekish me’yori, mln. dona/ga	Shonalash	Gullash	Qo‘zoqcha hosili qilish
Kuzgi muddatda ekilganda					
1	Kristall	4,0	44,7	66,4	95,4
2		6,0	47,2	70,2	100,2
3		8,0	49,5	73,7	104,2
4		10,0	49,3	72,1	101,4
5	Karat	4,0	43,2	68,9	101,2
6		6,0	45,8	72,0	104,6
7		8,0	47,2	75,6	108,7
8		10,0	45,5	73,9	104,7
9	Penzyak	4,0	48,5	68,2	102,1
10		6,0	51,0	71,3	105,5
11		8,0	53,3	74,3	108,9
12		10,0	52,3	70,7	102,4
Bahorgi muddatda ekilganda					
13	Kristall	4,0	52,1	74,0	95,7
14		6,0	53,6	76,3	98,8
15		8,0	55,8	80,5	103,3
16		10,0	51,0	75,1	96,8
Yozgi (takroriy) muddatda ekilganda					
17	Kristall	4,0	17,6	27,5	46,9
18		6,0	19,1	29,3	49,3
19		8,0	19,8	31,6	51,9
20		10,0	17,3	28,7	48,5

Rijik navlarida barg shakllanishiga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’siri aniqlandi. 2024-yil kuzgi muddatda rijikning Kristall navining 4 mln.dona/ga ekilgan variantida 92,7 dona bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan barg soni 7,3-15,8 dona, Karat navida gektariga 4 mln.dona ekilgan varinatda barg soni 78,8 dona bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan barg soni 6,6-24,4 dona, Penzyak navida eng kam ekish me’yorida barg soni 84,2 dona bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan barg soni 0,2-27,5 donaga kamayganligi kuzatildi. Kristall navi bahorgi muddatda ekilganda eng kam ekish me’yorida barg soni 84,9 dona bo‘lib, ekish me’yori oshgan sari barg soni 19,1-34,6 donaga, takroriy ekin sifatida ekilganda eng kam ekish me’yoriga nisbatan

barg soni 4,5-12,8 donagacha kamayganligi aniqlandi. Barcha muddat va navlarda eng kam ekish me'yorida barg soni yaxshi shakllanganligi qayd etdi va qolgan yillarda ham shu qonuniyat takrorlandi.

Rijik navlarida barg yuzasi shakllanishiga ekish muddati va me'yorining ta'siri aniqlandi. 2023-yilda rijik navlarining barg yuzasi "Kristall" navida gektariga 4 mln.dona ekilgan variantida 35,8 ming m^2/ga.ni tashkil etib, ekish me'yori oshib borishi bilan bir gektardagi barg yuzasi 16,4-28,9 ming m^2/ga, Karat navida eng kam ekish me'yorida bir gektardagi barg yuzasi 35,4 ming m^2/ga.ni tashkil etib, ekish me'yori oshib borishi bilan bu ko'rsatkich 12,5-26,9 ming m^2/ga, Penzyak navida esa eng kam ekish me'yoriga nisbatan 14,1-32,2 ming m^2/ga oshdi.

2023-yil bahorgi muddatda ekilgan rijikning Kristall navi gektariga 4 mln.dona ekilganda bir gektardagi barg yuzasi 41,0 ming m^2/ga tashkil etib, ekish me'yori oshib borishi bilan bir gektardagi barg yuzasi 1,5-8,5 ming m^2/ga, takroriy ekin sifatida ekilganda eng kam ekish me'yoriga nisbatan bir gektardagi barg yuzasi ekish me'yoriga bog'liq holda 7,0-20,2 ming m^2/ga oshgan. Gektariga 10 mln.dona ekilgan variantlarda har bir muddat va navlarda barg yuzasi yaxshi shakllanganligi aniqlandi. Kuzgi muddatda rijikning "Kristall" navi gektariga 10 mln.dona ekilgan variantlarida 64,7 ming m^2/ga tashkil qilib, qolgan navlarga nisbatan yuqori barg yuzasi shakillanganligi aniqlandi va qolgan yillarda ham shu qonuniyat takrorlandi. "Kristall" nav 2022-yil kuzgi muddatda gektariga 4 mln.dona ekilgan variantida fotosintetik imkoniyat 0,90 mln m^2kun/ga bo'lib, gektariga 6 mln.dona ekilgan variantda bu ko'rsatkich 0,49 mln m^2kun/ga, ekish me'yori 8 mln.dona/ga bo'lganda 0,76 mln m^2kun/ga va eng yuqori ekish me'yorida 0,99 mln m^2 kun/ga oshdi. Karat navi turli muddatlar va me'yorlarda ekilgan variantlarda mos ravishda fotosintetik imkoniyat gektariga 4 mln.dona ekilgan variantga nisbatan 0,46; 0,81; 1,06 mln m^2 kun/ga oshdi. Penzyak navida navi turli muddatlar va me'yorlarda ekilgan variantlarda mos ravishda fotosintetik imkoniyat gektariga 4 mln.dona ekilgan variantga nisbatan 0,45; 0,87; 1,14 mln m^2.kun/ga oshdi. Bahorgi muddatda fotosintetik imkoniyat "Kristall" navining gektariga 4 mln.dona ekilgan variantida 0,89 mln m^2 kun/ga bo'lib, ekish me'yori 2 million donaga oshirilganda bu ko'rsatkich 0,23 mln m^2 kun/ga, ekish me'yori gektariga 8 mln.dona bo'lganda 0,5 mln m^2 kun/ga va eng yuqori ekish me'yorida bu ko'rsatkich 0,72 mln m^2 kun/ga oshdi. Kristall navi takroriy ekin sifatida gektariga 6, 8 va 10 mln.dona ekilgan variantlarda mos ravishda fotosintetik imkoniyat gektariga 4 mln.dona ekilgan variantga nisbatan 0,11; 0,27; 0,41 mln m^2 kun/ga oshdi. Har uchala navda va muddatda ham ekish me'yori oshib borishi natijasida fotosintetik imkoniyat ortib borgan (2-jadvalga qarang).

Sof fotosintez mahsuldorligi kuzgi muddatda gektariga 8 mln.dona ekilganda yuqori bo'lib, "Kristall" navida 3,27 g/m^2 kun bo'lib, qolgan ekish me'yoriga nisbatan 0,05-0,8 g/m^2 kunga yuqori bo'lgan. Karat navida gektariga 8 mln.dona ekilgan variantlarga nisbatan sof fotosintez mahsuldorligi 0,03-0,79 g/m^2 kunga, Penzyak navida 0,09-1,41 g/m^2 kunga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Kristall navi bahorgi muddatda ekilganda sof fotosintez mahsuldorligi gektariga 6 mln.dona ekilganda yuqori bo'lib (3,55 g/m^2 kun), ekish me'yori gektariga 4 mln.dona qilib belgilangan variantlarda 1,03 g/m^2 kunga, gektariga 8 mln.dona ekilgan variantlarda 0,11 g/m^2 kunga va eng yuqori ekish me'yorida 0,12 g/m^2 kunga kamaydi. Yozgi muddatda

fotosintez sof mahsuldorligi gektariga 6 mln.dona ekilgan variantda yuqori bo‘lib, qolgan ekish me’yorlaridan 0,36-0,44 g/m^2 kunga yuqori bo‘lgani aniqlandi (2-jadvalga qarang).


2-jadval

Rijik navlarining bir gektardagi fotosintetik imkoniyati va sof fotosintez mahsuldorligiga ekish muddati va me’yorining ta’siri, (2022 y.)

№	Navlar	Ekish me’yori mln.dona/ga	Fotosintetik potensial, mln. m^2 kun/ga	Sof fotosintez mahsuldorligi, g/m^2 kun
Kuzda ekilganda				
1	Kristall	4,0	0,90	2,47
2		6,0	1,39	2,83
3		8,0	1,66	3,27
4		10,0	1,89	3,22
5	Karat	4,0	1,12	2,93
6		6,0	1,58	3,32
7		8,0	1,93	3,72
8		10	2,18	3,69
9	Penzyak	4,0	1,06	3,36
10		6,0	1,51	4,13
11		8,0	1,93	4,77
12		10,0	2,20	4,68
Bahorda ekilganda				
13	Kristall	4,0	0,89	2,52
14		6,0	1,12	3,55
15		8,0	1,39	3,44
16		10,0	1,61	3,43
Yozda (takroriy ekin sifatida) ekilganda				
17	Kristall	4,0	0,27	1,43
18		6,0	0,38	1,81
19		8,0	0,54	1,45
20		10,0	0,68	1,37

Rijik navlarida quruq massa miqdoriga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’siri aniqlanda 2023-yil kuzgi muddatda ekilgan Kristall navining gektariga 4 mln.dona ekilgan variantida quruq massa miqdori 126,2 s/ga bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan quruq massa miqdori 27,4; 43,9; 39,8 s/ga, Karat navida 31,4; 48,3; 36,8 s/ga va Penzyak navida 46,0; 61,4; 45,8 s/ga oshdi. Bahorgi muddatda ekilgan Kristall navida quruq massa miqdori gektariga 4 mln.dona ekilgan variantda 102,2 s/ga teng bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan 22,5; 20,9; 13,4 s/ga oshgan. Takroriy ekin sifatida ekilganda esa gektariga 4 mln.dona ekilgan variantda quruq massa miqdori 40,7 s/ga teng bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan 10,1; 9,7; 8,2 s/ga oshib borgani aniqlandi.

Rijik navlarining mingta urug‘ vazniga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’siri aniqlanganda kuzgi muddatda Kristall navi gektariga 4 mln.dona ekilgan variantida bu ko‘rsatkich 1,25 g.ni tashkil qildi. Ekish me’yori gektariga 6-8 mln.dona bo‘lganda bir xil 1,22 g.ni va eng yuqori ekish me’yorida 1,2 g bo‘lgani aniqlandi. Karat navi gektariga 4 mln.dona ekilgan variantda 1,12 grammga teng bo‘lib ekish me’yori oshib borishi bilan 0,01; 0,02; 0,04 grammga, Penzyak navida bu ko‘rsatkich 0,02; 0,03; 0,06 grammga kamayganligi aniqlandi. Bahorgi muddatda ekilgan Kristall navi eng kam ekish me’yorida mingta urug‘ vazni 1,24 grammga teng bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan bu ko‘rsatkich 0,06; 0,09; 0,16 grammga kamaygan. Kristall navi takroriy ekin sifatida ekilganda mingta urug‘ vazni eng kam ekish me’yorida 1,21 grammga teng bo‘lib, ekish me’yor oshib borishi natijasida mingta urug‘ vazni 0,05; 0,1; 0,15 grammgacha kamayganligi aniqlandi.



1-rasm. Rijik navlari quruq massasi va hosildorligi orasidagi o‘zaro bog‘liqlik

Dissertatsiyaning **“Rijik navlarining biometrik ko‘rsatkichlari, hosildorligi va urug‘ moydorliga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’siri”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida, ekish muddatlari va me’yorlarining rijik navlari hosildorligi, urug‘ moydorligi va iqtisodiy samaradorligiga ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

O‘rtacha uch yillik ma’lumot bo‘yicha kuzgi muddatda ekilgan “Kristall” navida gektariga 4 mln.dona ekilgan variantda 20,1 s/ga teng bo‘lib, ekish me’yori gektariga 6 mln. dona ekilganda 1,3 s/ga, 8 mln.dona ekilganda 1,9 s/ga qo‘shimcha hosil olinib, 10 mln.dona ekilganda deyarli bir xil hosil olingan. Karat navida gektariga 4 mln. dona ekilgan variantda 20,2 s/ga bo‘lib, ekish me’yori oshib borishi bilan hosildorlik ekish me’yoriga bog‘liq holda 2,4; 3,3; 4,5 s/ga, Penzyak navida 1,4; 3,8; 4,8 s/ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Bahorgi muddatda Kristall navi gektariga 4 mln. dona ekilgan variantga nisbatan hosildorlik ekish me’yoriga bog‘liq holda 0,9; 1,5; 2,1 s/ga, takroriy ekin sifatida ekilganda 0,7; 1,1; 1,7 s/ga oshganligi kuzatildi.

3-jadval

Rijik navlari hosildorligiga ekish muddatlari hamda me’yorlarining ta’siri, s/ga

№	Variantlar		Yillar			O‘rtacha 3 yillik
	Navlar	Ekish me’yori, mln. dona/ga	2022	2023	2024	
Kuzgi muddat						
1	Kristall	4,0	21,1	19,8	19,3	20,1
2		6,0	21,6	21,5	21,1	21,4
3		8,0	22,3	22,1	21,7	22,0
4		10,0	20,1	20,9	19,7	20,2
5	Karat	4,0	20,0	20,5	20,1	20,2
6		6,0	23,3	23,6	23,5	23,5
7		8,0	25,4	24,6	24,0	24,7
8		10,0	22,0	23,0	22,7	22,6
9	Penzyak	4,0	22,5	20,3	20,5	21,1
10		6,0	25,1	25,3	24,3	24,9
11		8,0	26,3	26,2	25,2	25,9
12		10,0	22,9	22,9	21,8	22,5
	EKF_{05}, s/ga, %		0,91 4,01	0,93 4,13	0,71 3,24	-
	Faktor A-navlar, s/ga %		0,18 0,79	0,18 0,81	0,14 0,64	-
	Faktor B-ekish me’yorlari, s/ga %		0,24 1,05	0,24 1,09	0,19 0,85	-
Bahorgi muddat						
13	Kristall	4,0	21,3	20,4	18,9	20,2
14		6,0	22,2	23,4	21,4	22,3
15		8,0	21,8	22,6	20,7	21,7
16		10,0	21,7	21,4	20,3	21,1
	EKF_{05}, s/ga, %		0,81 3,75	0,43 1,98	0,39 1,93	-
Yozda(takroriy ekin sifatida) ekilganda						
17	Kristall	4,0	7,5	7,1	7,7	7,4
18		6,0	8,9	8,8	9,4	9,1
19		8,0	8,4	8,2	8,8	8,5
20		10,0	8,0	8,0	8,4	8,1
	EKF_{05}, s/ga, %		0,26 3,15	0,29 3,65	0,33 3,47	-

